

O'ZLASHMA NEOLOGIZMLARNING YAPON TILIDA IFODALANISHI VA BADIY ASARLARDA KONSEPT SIFATIDA KELISHI

Visola Jamshid qizi Shuhratova

Samarqand davlat chet tillar Instituti talabasi

visolashuhratova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada neologizm tushunchasiga ta'rif bilan bir qatorda neologizmlar va ularning sharq tillarida xususan yapon tillaridagi tarjimalari, ma'nolari misollar asosida keng yoritilgan. Shu bilan birga, neologizm turlarga ajratilib, har biriga namunalar keltirilib, o'rganilib chiqilgan. Bundan tashqari neologizmlarni badiiy asarlarda konsept sifatida kelishi turli xil misollar yordamida keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: neologizm, ilmiy neologizmlar, siyosiy neologizmlar, texnologikva keng tarqalgan neologizmlar, tarjima, yapon tili, konsept, badiiy asarlar, depressiya, deportatsiya, mentalitet, stress;

ABSTRACT

In this article, along with the definition to the concept of neologism, neologisms and their translations, in particular the meaning of in Japanese language, their meanings are widely covered on the basis of examples. At the same time, neologism was divided into species, each of which was given samples and studied. In addition, the arrival of neologisms as a concept in fictions. In addition, there are multiple concepts given as an example.

Keywords: neologism, scientific neologisms, political neologisms, technological and common neologisms, translation, Japanese, concepts, fictions, depression, deportation, mentality, stress;

KIRISH

Neologizmlar — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o'tgach, ular «yangilik» xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, qayta qurish, reyting, tender so'zlari hozirgi kunda umum iste'moldagi so'zlarga aylanmoqda.

Neologizmlarning boshqa so'z tiplaridan farqlanishiga xizmat qiluvchi asosiy mezon so'zda yangilik bo'yog'ining saqlanib turganligidir. Neologizmida ikki tomon muhim: so'zning yangiligi va bu yangilik bo'yog'ining qachongacha saqlanib turishligidir. Yangilik bo'yog'i saqlanib turgan so'zlar tilda ancha avvallar paydo bo'lishiga qaramasdan neologizmlar qatorida qolaveradi.[2.155 b.]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular tilning mavjud lug'aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so'z yasash yo'li, shuningdek, mavjud so'zning lug'aviy ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan va boshqa tildan so'z qabul qilish orqali hosil qilinadi. [3.]

O'zlashma neologizmlar qayerda xabar va yangiliklar tezlikda tarqalsa o'sha hududlarda tez shakllanadi va rivojlanadi. O'zlashma neologizmlarning tilda paydo bo'lishi va yo'qolishi uning tilga qabul qilinganligida yoki lug'atlardan joy olganligida namoyon bo'ladi. Agar o'zlashma neologizmlar jamiyat fuqarolari tomonidan qabul qilinib foydalanilayotgan bo`lsa, bu o'zlashma neologizmlar lingvistika va lug'atshunoslikda ham qabul qilingan hisoblanadi. O'zlashma neologizmlarning paydo bo'lishi tilning rivojlanishida, o'zgarishida o'zining muhim o'rniga ega. Tilda o'zlashma neologizmlarning quyidagi turlari kuzatiladi:

1. O'zgaruvchan – yangi ma'noli, birgina madaniyat vakillari tomonidan tor ma'noda qo'llanilgan o'zlashma neologizmlardir.
2. Tarqalgan – jamiyat tomonidan ishlatiladigan, ammo hali lingvistik jihatdan qabul qilinmagan o'zlashma neologizmlar.
3. Turg'un, – barcha taniydigan, foydalanadigan va davomiylikga ega o'zlashma neologizmlar.

O'zlashma neologizmlarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. **Ilmiy neologizmlar** – ilm-fanda yaratilgan yangi termin yoki qoidalarga tasnif berish uchun yaratilgan so'zlar guruhidir. O'z nomi bilan neologizmlarning ushbu turi ilmiy atamalar sifatida fanda qo'llaniladi.

Jadval-1.

Neologizmlar	Ma'nosi	Yapon tilida
Antinomiya	[yunoncha. antinomiya] (Falsaфа). Ikki qonun, qoidalar, tamoyillar, kategoriylar o'rta sidagi ziddiyat.	二律背反 (にりつはいはん)
Multimedia	(Ingliz tilida multi - ko'p va media - o'rta, o'rta). Axborotning matnli bo'limgan turlari - audio va video.	マスメディア
Kollaj	(Fr. kollaj — yelimlash) — Tasviriy san'atdagi rang va teksturaga ko'ra asosdan farq qiluvchi predmet va materiallarni taglikka yopishtirishdan iborat texnika.	コラージュ
Konvertatsiya	(lot. conversio — o'zgartirish) — Sezilarli o'zgarish, shart-sharoitning o'zgarishi, ayrim ishlab chiqarish ob'yektlarini boshqalarga yoki ayrim moliyaviy vositalarga almashtirish.	返還 (へんかん)
Vernisaj	(frantsuz vernisajidan - lakkash) - Rassomning tantanali ochilishi. ko'rgazmalar.	バーニーサージュ
xronologiya	Qadimgi xalqlar orasida va mamlakatlarda amalda bo'lgan yil hisobi va taqvimni o'rganuvchi soha.	年表 (ねんぴょう)
Dijest	Nashr yoki uning bo'limi bo'lib, unda ko'plab davriy nashrlarning nashrlari ma'lum bir davr mobaynida matbuotda o'z o'rnini topgan eng qiziqarli narsalar haqida tasavvurga ega bo'lish uchun siqilgan shaklda ko'chirmalar bilan uzatiladi.	ダイジェスト

Mizantrop	Odamni yomon ko'radigan, beg'araz, misantropiyadan aziyat chekadigan odam.	ミサヌスロパス
Mentalitet	[lotincha mentis -] - Ma'lum bir madaniyatga mansub odamlarning ruhiy hayotining o'ziga xosligi tizimi, ularning atrofdagi dunyoni idrok etish va baholash xususiyatlarining sifat to'plami.	メンタリティ
Reklama	(inglizcha publicity — publicity, glasnost) — Atama ma'nosi: Biror narsaning mashhurligi yoki uning manbasidan ma'lumot olishga ochiqligi bilan belgilanadigan mashhurlik.	広告 (こうこく)
Sertifikat	Lotincha sertifico - men tasdiqlayman. Muayyan faktini tasdiqlovchi hujjat, guvohnoma.	証明書 (しょうめい)

2. Texnologik neologizmlar – yangi texnika va texnologiyaning paydo bo'lishi bilan iste'molga kiritilgan so'zlar jamlanmasi. Ushbu turdagи neologizm ba'zi so'zlar texnologiya va fan sohalarida yuzaga keladigan burilishlar bilan bog'liq. Ular deyarli har doim boshqa tillardan keladi, masalan, ispancha ingliz tilidan. Ushbu tasnif bugungi kunda eng ko'p ishlatiladiganlardan biridir.

Jadval – 2.

Vinchester	Shaxsiy kompyuterning tashqi doimiy xotirasi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi qattiq disk (disklar).	ワインチェスター
Display	(inglizcha display - ko'rsatish, distantion play - masofada o'ynatish) - axborotni vizual ko'rsatish uchun mo'ljallangan elektron qurilma.	画面 (がめん)

Modem	Telekommunikatsiya (telefon) liniyalari orqali signallarni uzatish va qabul qilish uchun kompyuterga ulangan tashqi yoki ichki qurilma.	モデム
Noutbuk	(inglizcha daftар - notebook) - portativ noutbuk.	パソコン
Skaner	(ing. skaner) - ob'ektni (odatda rasm, matn) tahlil qilish orqali ob'ekt tasvirining raqamli nusxasini yaratadigan qurilma.	スキャナー

3. Siyosiy neologizmlar – siyosatga va iqtisodga kiritilgan yangi termin va buyruqlarni ifodalashda keng qo'llaniladigan so'zlar.

Jadval – 3.

Avtoritar	Hokimiyatga so'zsiz bo'ysunishga, diktaturaga asoslangan.	権威主義者 (けんいしゅぎしゃ)
Ambitsiya	(Lot. ambitio dan): Maqsadlarga erishishga intilish, ambitsiya.	野望 (やぼう)
Area	(Lot.area dan - maydon, makon), qism yer yuzasi (yoki suv zonasi), uning ichida hayvonlar yoki o'simliklarning u yoki bu turi (jins, oila va boshqalar) joylashgan.	範囲 (はに)
Dilemma	(yunoncha dí-lémxa qo'sh lemma) - Uchinchisining imkoniyatini istisno qilgan holda, ikkita qarama-qarshi pozitsiyaga ega bo'lgan polemik argument.	ジレンマ
Depozit	(lot. depositum — saqlash uchun berilgan narsa) —bank va omonat kassalariga qo'yiladigan omonatlar;	保証金 (ほしょうきん)
Deportatsiya	(lot. deportatio — haydab chiqarish,) — Shaxsni yoki butun toifadagi shaxslarni boshqa davlat yoki boshqa joyga, odatda, kuzatuv ostida majburan chiqarib yuborish.	強制送還 (きょうせいそうかん)
Invest	Har qanday korxona yoki biznesga sarmoya kiritish.	投資 (とうし)

Lizing	Mulkni sotib olish va uni ijara shartnomasi asosida jismoniy yoki yuridik shaxslarga ma'lum haq evaziga, ma'lum muddatga va shartnomada nazarda tutilgan muayyan shartlarda berish bo'yicha investitsiya faoliyati turi.	リース
Marketing	(ingliz bozoridan - bozor) - Tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog'ozlar bozori sohasida tovarlarni sotishni rag'batlantirish, ayrboshlashni rivojlantirish va tezlashtirish maqsadida amalga oshiriladigan keng ko'lamli faoliyat.	マーケティング
Marginal	(lot. marginalis - chekka, chegara, yon) - O'z ijtimoiy guruhidan tashqarida bo'lgan shaxs, chetlangan.	限界 (げんかい)
Sammit	(inglizcha sammitdan) – Uchrashuv, eng yuqori daraja, ya'ni davlat yoki hukumat rahbarlari o'tasidagi muzokaralar.	サミット

4. Keng tarqalgan, popular neologizmlar – ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqalgan neologizmdir. Ushbu turdag'i neologizmlarni kundalik hayotimizda juda ko'p ishlatamiz va duch kelamiz.

Blogger	Veb-saytlarda o'z shaxsiy bloglarini yuritadigan shaxs.	ブロガー
Barmen	Barda mijozlarga xizmat ko'ssatadigan bar ishchisi.	バーメン
konteyner	(Inglizcha contain - o'z ichiga olmoq - "o'z ichiga olish, o'z ichiga olish"; so'zma-so'z "olish, sig'im") - Polisemantik so'z, narsalar saqlanadigan joy.	容器 (ようき)
Stress	(inglizcha stress stress; stress reaktsiyasining sinonimi) - Turli kuchli yoki yangi ta'sirlar (og'riq, sovuq, haddan tashqari jismoniy zo'riqish, psixoemotsional travma va boshqalar) ta'siri ostida rivojlanadigan tananing nospetsifik reaktsiyasi.	ストレス
Manga	yapon filmlari	マンガ

Brifing	Tashkilotchi hozir bo'lganlarga ba'zi ma'lumotlarni yetkazadigan tadbir .	ブリーフィング
Broker	(ingliz brokeri) - Qimmatli qog'ozlar bozorida (fond birjasida) yoki tovar birjasida mijoz nomidan va uning hisobidan qimmatli qog'ozlar yoki birja tovarlarini sotib olish va sotish funktsiyalarini bajaruvchi vositachi.	ブローカー
Depressiya	[Lotin. depressiya]. 1. Tushkunlikka tushgan, tushkun ruhiy holat.	うつ病 (うつびょう)

Bundan tashqari, badiiy asarlarda ham neologizmlar konsept sifatida talqin etiladi. Bunda, butun bir asarning ma'nosini kontseptdan anglab olishimiz mumkin.

“Konseptosfera tushunchasi ma'lum xalqqa oid konseptlarning tartibli majmuasi hisoblanadi. Har bir xalq konseptosferasida milliy mentalitetning asosini tashkil etuvchi va yorqin milliy o'ziga xoslikka ega bo'lgan ma'lum konseptlar majmuasi aks etadi. Ma'lumki, milliy konseptosferada milliy mentalitet, millatning fan va madaniyati umumiyligi korinishda aks etadi. Til esa madaniy konseptosferaning ajralmas bo'lagi sanaladi.” [1.11 b.]

Har qanday romandagi “matn konseptosferasi” ni o'rganish tadqiq etilayotgan asardagi taxlil maydonining to'ldirilishi, konseptlarning dinamik taraqqiyotini ko'rish ulardan birortasining diskursdagi ustunligini belgilash, konseptning kognitiv qatlamini taxlil etish, baholovchi komponentni aniqlash imkoniyatini yaratadi. Sh.S. Safarov diskursda shaxs omilini o'rganishning muhimligi borasida fikr yuritadi: “Pragmalingvistikaning shaxs omilini o'rganishga qaratilishi o'z vaqtida amala oshirilgan harakat bo'lib: shaxsning kognitiv tarmoqdagi o'zaro munosabatlarda va diskursiv faoliyatida, diskursni mavhum bo'limgan lisoniy-kognitiv faoliyat mahsuli sifatida baholash , ya'ni aniq individual faoliyatni mahsuli sifatida tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir”.[10. 139 b.]

“Deportatsiya” konsepti

Nuriddin Ismoilovning “Tan soqchi” asarida “deportatsiya” neologizmini konsept sifatida ko'rishimiz mumkin. Ushbu asarda asosiy voqealar Amir ismli o'zbek yigitining Moskvada rus boyvachchasiga tan soqchi bo'lib keyinchalik, mafialar tomonidan quviladi. Bundan tashqari, qaysi mamlakatga bormasin muqim joylasholmay deportatsiya qilinavergandan so'ng, u qochib, berkinib yashaydi. Ko'rinish turibdiki, ushbu asarda “deportatsiya” neologizmi asosiy konsept bo'lib kelgan.[5.]

“Depressiya” konsepti

Yapon milliy konseptosferasi o'ziga xos bo'lib, uning madaniy an'analari, estetik qadriyatları zamonaviy adabiyotning badiiy matnlarida haligacha sezilib turadi. Yapon milliy konseptosferasi o'rta asr estetik an'analariga asoslangan boy, nafis va nazokatli hodisadir. Yapon yozuvchisi Xaruki Murakamining "Qirg'oq bo'yidagi Kafka" asarida "depressiya" neologizmi konsept sifatida keladi.

"Qirg'oq bo'yidagi Kafka" asarida Kafkaning tog'dagi yolg'izligi "chuqur quduqning tubidagidek" tushunchasi bilan qiyoslanadi. Yolg'izlik natijasida depressiya ichida yashaydi. 「そこには、<圧倒的な無感覚>とでも呼びたくなるようなものが感じられた」 [村上春樹,ねじまき鳥クロニクル] [第1部] 1994, p.144]. [6.]

"Stress" konsepti

Ushbu konsept yapon yozuvchisi Xaruki Murakamining "Norveg o'rmoni" romanida "stress" neologizmi konsept sifatida keladi. Yozuvchi romanda "stress" konseptining to'liq psixofiziologik va mental majmuini o'z shaxsiy dunyoqarashidan kelib chiqib yaratgan. Dastlab konsept o'z tarkibiga kiritiluvchi badiiy obrazga aylanayotgan tushunchalarning maksimal mazmunini ifodalash imkonini beradi. [7.]

Konsept orqali badiiy tafakkur tarkibining eng muhim elementlarini tushunchadan badiiy obrazga tomon birlashtiriladi. Shunday qilib, badiiy matn tahlilini asosiy konseptlarni tashkil qiladigan elementlarini har tomonlama tadqiq qilmasdan amalga oshirishning iloji yo'q. Shuning uchun ham, Xaruki Murakami ijodining ikkinchi davrini undagi asosiy konseptlarni tahlil qilish orqali konseptual jihatdan o'rganish mumkin. [1.12 b.]

"Mentalitet" konsepti

"Mentalitet" neologizmining o'zbek yozuvchisi Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" asaridagi o'rni juda muhimdir. Asarda onaning o'zbek mentalitetiga xos bo'lgan xarakterda ekanligi, unga amal qilib yashashi, farzandini kutishi, umuman olganda, onaning barcha xislatlari o'zbek mentalitetiga xosdir. Farzandi esa Rossiya fuqoroligini olib, dinini o'zgartirib, o'z tili, dinini, mentaliteti va madaniyatini unutadi. Bularni hammasi "mentalitet" kontseptiga mansubdir. [8.]

Xulosa

Neologizmlar bir tilda paydo bo'lganligi sababli, tillar o'rtasida tarjima qilish qiyin bo'lishi mumkin. Nashr etilgan tadqiqotlar va tadqiqotlar uchun ingliz tili ustun bo'lgan ilmiy jamoatchilikda ba'zida bir-biriga o'xshash tarjimalar ("naturalizatsiya" deb nomланади) ishlatiladi. Shu bilan bir qatorda inglizcha so'z ma'noga qisqacha izoh berish bilan birga

ishlatiladi. Neologizmlarni tarjima qilish uchun to'rtta tarjima usuli ta'kidlangan: transliteratsiya, transkripsiya, analoglardan foydalanish, kaltsiy yoki kredit tarjimasi.

Inglizchadan boshqa tillarga tarjima qilishda, asosan, naturalizatsiya usuli qo'llaniladi. Professional tarjimonlar neologizmlarni tarjima qilishning eng keng tarqalgan usuli hisoblanadi, bunda tarjimonlar nutq orqali eng to'g'ri va tabiiy tovushlarni topadilar. Shunday qilib, tarjimonlar jumlalarda potentsial tarjimalardan foydalanishi va ularni turli tuzilmalar va sintaksis bilan sinab ko'rishlari mumkin. Noto'g'ri tarjimalar "tarjima assimetriyasiga" olib kelishi mumkin ya'ni, tushunmovchiliklar va noto'g'ri munosabatlarni yuzaga keltiradi.

XULOSA

Tarjimaning maqsadi A.Feodorov takidlashicha: "Tarjima chet tilini bilmagan o'quvchini mumkin darajada matn bilan yaqindan tanishtirishdan iborat". [9. 350 b.]

Ya.I.Resker tarjimaga quyidagicha aniqlik kiritadi : "Tarjima boshqa til birliklari orqali mazmun va uslub birligini saqlagan holda asl nusxani qayta ishslash demakdir". Tarjima murakkab jarayondir. Asl nusxani aniq va to`g'ri mazmunini uzatish uchun faqatgina to`g'ri keladigan so`zlarni topish kifoya emas, lekin Grammatik shakl va birliklarni ham o`z ichiga olishi kerak.

Xalqlarning turli tabiy, iqtisodiy – ijtimoiy –siyosiy sharoitida yashashlari natijasida ularning ongi, dunyoqarashi va alohida turli maxsus tushunchalar va normalar , prinsiplar qaror topadiki, bularning hammasi ham tilda aks etadi . Lekin, texnik taraqqiyot rivojlanishida boshqa bir davlatda paydo Bo`lgan tushunchalarni anglatuvchi neologizmlar boshqa bir tilda muqobil variantga ega emasligi ham mumkin. Chunki, har bir tirik til tanaffuzsiz o`zgarish jadal taraqqiyotda bo`ladi. Uning olg`a siljuvchi komponentlaridan biri lug`at hisoblanadi. Boshqa til jabhalariga qaraganda, hammadan oldin leksik katta dinamika orqali uning kengayishi va o`zgarishi va rivojlanishi isbotlab berilgan.

REFERENCES

1. Amanullayeva K. M. Badiiy asar konseptosferasi va asosiy konseptlarning tarjimada qayta yaratilishi. Samarqand-2020
2. ЎЗБЕК ТИЛИ ЛЕКСИКОЛОГИЯСИ, ТОШКЕНТ • УЗБЕКИСТОН ССР «ФАН» НАШРИЁТИ • 1981. 155b
3. M. Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent “O’qituvchi” 1992.

4. М. М. МИРТОЖИЕВ ЎЗБЕК ТИЛИ СЕМАСИОЛОГИЯСИ Тошкент «MUMT0Z S 0 'Z» 2010
5. Nuriddin Ismoilov, “Tansoqchi”. “G'afur G'ulom” 2012
6. Xaruki Murakami, “Qirg'oq bo'yidagi Kafka”. 12.09.2002.
7. Xaruki Murakami, “Norveg O'rmoni”, 1987.
8. Said Ahmad, “Qorako'z Majnun”, “O'zbekiston NMIU” 2001.
9. Fedorov, Alexander. Media Education: History and Theory. Moscow: ICO “Information for all”, 2015, 450 p.
10. Сафаров Ш.С. Прагматингвистика. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б 139.
11. Shuhratova, V., & Amanullayeva, K. (2021). KAZUO ISHIGURONING" DAFN ETILGAN GIGANT" ASARIDA FANTASTIK G'OYALAR TALQINI. Интернаука, (28-2), 67-68.
12. Амануллаева, К. М. О ХУДОЖЕСТВЕННОМ КОНЦЕПТЕ И В ЦЕЛОМ. ББК 74.48 Р 76, 271.
13. Амануллаева, К. (2020). Художественный концепт и специфические характеристики его воссоздания. Иностранный филолог: язык, литература, образование, (4 (77)), 53-57.
14. Амануллаева, К. М. (2018). МНОГОФУНКЦИОНАЛЬНОСТЬ КОНЦЕПТА "ПУСТОТА" В РОМАНЕ ХАРУКИ МУРАКАМИ" 1Q84". In Язык и культура (pp. 134-140).
15. Amanullayeva, K. M., & Qizi, S. V. J. (2022). The harmony of concepts in kazuo ishiguro's the buried giant. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 136-141.